

Jo'raboyeva O'g'iloy Dilmurod qizi  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
qoshidagi akademik litsey o'quvchisi  
+998905726818

**Annotatsiya:** ushbu maqolada xalqaro huquq va O'zbekiston respublikasidagi bola huquqlari qaydarajada qadirlanayotgani, davlatimiz tomonidan bolalarga qaratilayotgan e'tibor, bola huquq va erkinliklari, bola huquqlari poymol etilishining achinarli oqibatlari hamda muallifning bola huquqlari to'g'risidagi fikr-mulohazalari o'z ifodasini topgan.

**Аннотация:** В данной статье ценится международное право и права детей в Республике Узбекистан, внимание, уделяемое нашей страной детям, права и свободы детей, печальные последствия нарушений прав ребенка, а также мнение автора о правах детей выражены в этой статье.

**Abstract:** In this article, international law and children's rights are valued in the Republic of Uzbekistan, the attention paid to children by our country, children's rights and freedoms, the sad consequences of child rights violations, and the author's opinions about children's rights are expressed in this article.

**Kalit so'zlar:** bola,bola huqlari, bola huqulari to'g'risidagi konvensiya, konstutsiya, bola huquqlarini himoyasi.

**Ключевые слова:** ребенок, права ребенка, конституция, прямой конвенции о правах ребенка, защита прав ребенка.

**Key words:** child, children's rights, convention on children's rights, constitution, protection of children's rights.

Har bir rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda bola huquqlari alohida ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda 193 ta davlat UNISEF-bola huquqlarni himoya qilish tashkilotiga a'zodirlar. Bu dunyoning kelajak avlodlarning huquqlariga e'tibor qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek 1989-yili 20-novabr kuni BMTning bosh assambleyasi tomonidan "Bola huqulari" to'g'risidagi konvensiya imzolandi.

Shu o'rinda "konvensiya" so'ziga ham ta'rif berib ketsam. "Konvensiya" lotinchadan tarjima qilinganda "kelishuv" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu konvensiya bir qancha xalqaro huquqiy majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Unda alohida davlatlarning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qirallari aks etga. Har bir davlat bu moyorlarning bajarilishiga o'ziga xos milliy xususiyatlarni nazarga olish huquq va imkoniyatiga ega.

Mening yurtim- O'zbekiston ham ushbu konvensiyani imzoladi, unga ko'ra olingan majburiyatlarni amalga oshirish maqsadida "Sog'lom avlod uchun" fondi tashkil qilingan. Maskur konvensiyada bola huquqlari qat'iy belgilab qo'yilgan. Masalan; 18 yoshga to'limgan har kim bola hisoblanadi va bir qancha ajralmas huqularga ega.

Dunyodagi har bir bola yashash huquqiga, bepul ta’lim olish, ota-onasini, vasiylar yohud davlat qaramog’ida bo’lishi, qonunda ko’rsatilgan hollarda ijtimoiy yordam olishi va hayotiga bo’lgan har qanday tajavuzdan himoyalanishi kabi bir qator huquqlarga egadirlar.

Bolalar fuqaroligi bo’lishi va bo’lmasligidan qat’i nazar teng huquqli ekanligi O’zbekiston Respublikasi “Bola huquqlari” to’g’risidagi qonunda takidlangan. Bola jinoyat sodir etgan taqdirda jazo sifatida qamoq eng oxirgi yechim hisoblanadi. Bola balog’at yoshiga yetgunga qadar kelajakdagi o’rni uzil-kesil belgilanadi. Shu sababli ham xalqaro huquda bolaga nafaqat jismoniy balki aqliy tajavuzlardan himoya qilinish huquqi hamda u qaramog’ida bo’lgan shaxslarning bunga javobgarligi belgilangan.

Mening fikrimcha jamiyatda eng himoyaga muhtoj qatlama bu- bolalar qatlami. Chunki har bir bola bu yurtning keajagidir. Bolalarni aldash, ularga tazyiq o’tkazish, turli g’oyaviy fikrlarni singdirish osondir. Chunki hali ularda huquqiy ong hali shakillanmagan bo’ladi. Har bir davlat o’z qaramog’ida bo’lgan bolalarni bu kabi xavfli holatlardan himoya qilmog’i zarurdir. Shuningdek majburiy bola mehnatidan foydalanishga ham cheklov qo’yilmog’i zarur. Xususan hozirgi kunda O’zbekiston Respublikasida ham bolalarni majburiy mehnatga jalb qilish qonunan man etiladi. Ammo, yaqin kunlargacha bola mehnatidan foydalanilganiga guvoh bo’lib kelganmiz.

Tarixdan bir misol keltiraman: yaqin 2016-yilgacha katta sinfdagi bolalar paxta terishga jalib etilib, o’quv yilining boshidan dekabir oyiga qadar hatto o’qituvchilar ham paxta terish bilan mashg’ul bo’lganliklari sababidan boshlang’ich sinf o’quvchilariga ham dars o’tilmagan. Bu holatdan xabar topgan rivojlangan mamlakatlar O’zbekiston paxtasiga baykot e’lon qilishib, bir qancha yirik kompaniyalar davlatimizga o’z qo’shma korxonalarini ochishdan bosh tortilar. Yurtboshimiz tashabbusi bilan bu holatga barham berildi va hozirda hech bir inson majburiy mehnatidan foydalanishiga yo’l qo’yilmaydi.

Shuningdek, mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi", "Mehnat kodeksi", "Oila kodeksi", "Fuqarolik kodeksi", "Jinoyat kodeksi" va bir qator hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari, Oliy kengashning "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilishi haqida"gi qarori, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi, "Bola huqulari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bollalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taaluqli fakultativ protokolga qo'shilishi haqida"gi, "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar pornografiyasiga taaluqli fakultativ pratakolga qo'shilishi haqida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakillantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar va juda ko'plab boshqa normativ huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

BMTning bosh assambleyasining mingyilik rivojlanish sammitiga O’zbekiston o’z oldiga qo’yan bolalar o’limini qisqartirish, onalar salomatligini yaxshilash, OITS, sil va bezgakni tarqalib ketishiga qarshi kurash kabi maqsadlari ham yurtimizda istiqomat qiluvchi har bir bolaning huquq va erkinliklarini taminlash va ularning yaxshi yashashlari uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish kabi maqsadlarga erishish uchun bugungi kunda ko’plab ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Bundan tashqari yurtimizda turli sohalarga yoshlar o'rtasida o'tkazilayotgan "Umid nihollari", "Yangi avlod", "Kelajak ovozi" kabi turli yo'nalishlardagi ko'plab ko'rik tanlovlар va musobaqalar yoshlarni sog'lom qilib tarbiyalash, ularni manan yetuk qilib voyaga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Yurtimizda zamonaviy talablarga to'laligicha javob beruvchi maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, kollej, litseylar, musiqa maktablari, sport maktablari, bolalar ijod maktablari, mehribonlik uylari, bolalar ijod saroylarining bunyod etilayotganligi mamlakatimizning bolalarga ajratilgan e'tiborining yana bir isboti desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mehribonlik uylariga alohida to'htalib o'tsam. Ota onasidan ajiralgan bolalar davlat himoyasida Mehribonlik uylarida o'sishi barchaga ma'lum. Mamlakatimizda bir necha yillar Farg'onada Mehribonlik uylari tugatildi. "tugatildi" degan jumla bu kabi xabalarda ijobiy ma'noda aytildi. Xalqimizning bolajonligi Shomaxmurodovlar oilasi misolida ko'rindi. Mehribonlik uylarida aynan mehrga muhtoj bolalar hali yana ko'prog'i xalqimiz tomonidan vasiylikka olinishi mumkinligi ajab emas.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2.O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlari" to'g'risidagi qonuq
- 3.www.lex.uz